

qaratish zarur. Bunga davlat yoki davlatga tegishli korxonalaridan pilot sukuk emissiyalari chiqarish, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari portfel siyosatida sukuklarni jalb qilish hamda investorlar uchun majburiy hisobot va reyting tizimlarini joriy etish kiradi. Shuningdek, sukukning tez va keng joriy etilishidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan tizimli xatarlarni oldini olish muhimdir. Ular orasida asosiylari quyidagilar: aktivlar sifatining pasayishi, hukumat kafolatlarining ortiqcha qo'llanilishi va bozor konsentratsiyasining oshishi. Ushbu xavflarni kamaytirish maqsadida emissiyalarni majburiy tekshiruv orqali amalga oshirish, shaffof hisobot standartlarini joriy etish, sukuklar uchun alohida kapitallashtirish talablarini kiritish hamda makroprudensial monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa qilib aytganda, sukuk instrumentlari kapital bozorining barqarorligini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega: ular bozor likvidligini oshiradi, portfel diversifikatsiyasini ta'minlaydi, real sektor bilan integratsiyani kuchaytiradi va institutsional investorlar orqali uzoq muddatli barqaror kapitalni jalb qiladi. Shu sababli mamlakat siyosatchilari va bozordagi ishtirokchilar sukuk mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish va shu bilan birga xavflarni mitigatsiya qilish bo'yicha barqaror normativ-institutsional platformani yaratishga ustuvor e'tibor berishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. European Central Bank. Capital markets union: a deep dive. – 2025.*
- 2. World Bank Group. Islamic Green Finance: Opportunities and Challenges. – Washington, D.C., 2023.*
- 3. IMARC Group. Sukuk Market Size and Share: Global Report 2025. – 2025.*
- 4. KLSE Screener. Malaysia Islamic Capital Market Data 2024. – <https://www.klsescreeener.com>*
- 5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Kapital bozorini rivojlantirish strategiyasi 2030. – Toshkent, 2023*
- 6. <https://lex.uz/>*

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti doktoranti,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti,

Sharipjonova Mohinur Davronjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, istiqbollari va joriy etishning dolzarbligi yoritilgan. Tadqiqotda mavjud bank tizimi, moliyaviy institutlar infratuzilmasi va amaldagi qonunchilik asosida islom moliyasini joriy etish jarayonidagi imkoniyatlar va muammolar tahlil qilindi. Natijalar mamlakatda islomiy bank xizmatlariga nisbatan ijtimoiy talab mavjud va ushbu sohani rivojlantirish iqtisodiy inklyuzivlikni kengaytirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, islom moliyasini samarali joriy etish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, takaful, sukuk, O'zbekistonda islom moliyasi.

So'ngi yillarda dunyo moliya tizimida Islom moliyasi alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Tizimning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, u an'anaviy moliya tizimidagi foiz ya'ni ribo asosida emas balki sherikchilik, savdo va aksiyalar orqali moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda.


Bungungi kunga kelib islom moliya tizimining umumiy hajmi taxminan 6 trln AQSh dollari atrofida bo'lib, dunyo bo'ylab 80 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritib kelmoqda. Saudiya Arabistoni, Malayziya, BAA, Indoneziya, Qatar va Kuvayt kabi bir necha davlatlar ushbu tizimda yetakchilik ko'rsatmoqda.²⁸⁴

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham Islom moliya tizimini shakllantirish dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil Islom moliya tizimini tashkillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi²⁸⁵. Shu bo'yicha Moliya vazirligi, Markaziy bank va Islom taraqqiyot banki hamkorligida normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, "Islom moliya to'g'risida" gi qonun loyihasi tayyorlanib, 2025-2026 yil qabul qilinishi kutilmoqda. Ushbu tezisdagi Islom moliya tizimining O'zbekistonda rivojlanishining nazariy asoslari va istiqbollari yoritib o'tiladi.

Mazkur tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda statistik ma'lumotlar asosida jadval va grafiklar orqali umumlashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar ham o'rganilib, yetakchi davlatlar amaliyotlari bilan taqqoslash amalga oshiriladi. Yig'ilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, umumiy xulosalar va takliflar taqdim etiladi.

²⁸⁴ Islamic Finance Development Report 2025. ICD & LSEG, 2025. – PDF.

²⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida", 2022-yil 20-aprel, O'RQ-765. – Lex.uz.



1-rasm. Islom moliyasida moliyalashtirish turlari²⁸⁶

Dunyo aholisining ko'pchiligi islom moliyasining asosiy tushunchali haqida hali to'liq ma'lumotga ega emas. Bu moliya tizimi shariat qoidalar asosida foiz ya'ni ribo va sudxo'rlikni taqiqlab, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara kabi shariy shartnomaviy asoslarga tayanadi²⁸⁷. Bularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tsak: Murabaha — bu bankning mijoz uchun tovarni sotib olib, ustama qo'shib sotishidir. Bu kredit emas, balki savdo shartnomasi hisoblanadi. Mijoz tovar qiymatini bo'lib-bo'lib to'laydi, lekin foiz to'lamaydi.

- Mudaraba — bu islom moliyasida sherikchilik bo'lib, bunda bir tomon kapital bilan ta'minlaydi ikkinchi tomon esa biznesni boshqaradi. Foyda ikki tomon o'rtasida taqsimlanadi, zarar esa asosan kapital beruvchining zimmasiga tushadi agar biznes yurituvchining xatosi tufayli bo'lmagan bo'lsa.


- Musharaka — bu birgalikdagi investitsiya bo'lib, ikki yoki undan ko'proq odamlar kapital qo'shadi va biznes yoki loyhani amalga oshiradi. Foyda oldindan kelishilgan asosda taqsimlanadi, biroq zarar kapitalga qancha ulush qo'shgani asosida bo'linadi.

Ijara — bu aktivni ma'lum muddatga ijara berish shaklidagi moliyalashtirish bo'lib, huquqiy egalik bankda bo'ladi va foydalanuvchi ijara asosida to'lovni amalga oshirib boradi. 2024-yilda Global Islom moliya sanoati aktivlari 6 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, Islom banklari 4 318 milliard AQSh dollarini, Sukuk 1031 milliard AQSh dollarni, Islom investitsiya fondlari 308 milliard AQSh dollarni, Boshqa islomiy moliya institutlari 193 milliard AQSh dollarni va Takaful 136 milliard AQSh dollarni tashkil etgan²⁸⁸. (2-rasm)

²⁸⁶ Muallif ishlanmasi

²⁸⁷ ACCA. *Introduction to Islamic Finance*.

²⁸⁸ Islamic Finance Development Report 2025. ICD & LSEG, 2025. – PDF.



2-rasm. Islomiy moliya institutlarining aktivlari miqdori (mlrd. dollar)²⁸⁹

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, islom banklari va sukuk bozori global islom moliya tizimining asosiy harakatlantiruvchi segmentlari hisoblanadi. Takaful va investitsiya fondlari esa nisbatan kichik ulushni egallagan bo'lsa-da, ularning rivojlanish sur'ati yuqori. Mazkur global ko'rsatkichlar O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Islom moliya tizimining jadal rivojlanishi mamlakatimizda ham ushbu sohani tashkil etish va rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishda quyidagi muammolar dolzarb hisoblandi. Jadval ularning tahlili va takliflarni taqdim etadi.

1-jadval

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishdagi muammolarning tahlili va takliflari²⁹⁰

Muammo	Tahlil	Taklif
Huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi.	Amaldagi bank qonunchiligi islom moliyasiga moslashtirilmagan.	"Islom moliyasi to'g'risida" gi qonunni amalga tatbiq qilish va alohida standartlarni ishlab chiqish.
Tijorat banklarining tayyorgarligi past.	Hozirgi banklar islomiy moliya xizmatlariga moslashmagan.	Islom moliya bo'limlarini tashkil qilib, xodimlar uchun tayyorgarlik kurslarini joriy qilish.
Aholining moliyaviy savodxonligi yetarli emas.	Aholining ko'p qismi islom moliyasining asosiy tamoyillaridan xabardor emas.	Aholi va tadbirkorlar uchun amaliy va ma'rifiy seminarlar tashkil qilish.
Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi.	Sukuk va takaful bozori mavjud emas.	Islom kapital bozorini shakllantirish.

²⁸⁹ Islamic Finance Development Report 2025. ICD & LSEG, 2025. – PDF.

²⁹⁰ Safarov S. I. "Tijorat banklarida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish masalalari", Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy Journali, 2025, 5(02), 305–310.

Xulosa qilib aytganda, bu tizim aholining diniy e'tiqodlariga mos keluvchi moliyaviy xizmatlarni taklif etish orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish mamlakat moliya tizimini yanada barqaror, inklyuziv va diversifikatsiyalashgan shaklga keltirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda kompleks yondashuvni qo'llash, xalqaro tajribadan samarali foydalanish hamda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda institutsional va huquqiy islohotlarni amalga oshirish kelgusida ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inomjonov I. (2025). *O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari*. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Jurnali*, 11, 307-310
2. Soatova X. (2025). *Islom moliyasini O'zbekistonda joriy qilish istiqbollari*. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalar*, 4(4), 106-108.
3. Abdullayev A., & Chirmashev A. (2025). *Islom moliyasini O'zbekistonda joriy etish tamoyillari*, 57(1), 196-205.
4. Safarov Sh. I. (2025). *Tijorat banklarida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish masalalari*. *Aktur Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy*, 5(02), 305-310.
5. Ahmadjonov O. (2022). *O'zbekistonda Islom moliya tizimini qo'llash istiqbollari*. *Qo'qon Unversiteti Xabarnomasi ilmiy-elektron jurnali*, 5, 47-50.
6. London Stock Exchange Group & ICD. (2025). *Islamic Finance Development Indicator 2025 (PDF)*. London Stock Exchange Group.
7. Salaam Gateway. (2025). *Islamic finance sector snapshot 2024-25*.
8. Shodmonov R., & Mustafakulov S. (2024). *Green innovations in Uzbekistan: Opportunities and challenges*. Nordic International University.

THE LANGUAGE OF FINTECH: A DISCOURSE ANALYSIS OF PERSUASION AND FRAMING IN FINANCIAL INNOVATION

Pethias Siame

Kwame Nkrumah University, Zambia

Abstract. *This research takes a closer look at the language used by the financial technology sector, moving beyond traditional economic analyses to understand how words persuade and frame our perception of money in the digital age. It deconstructs the text found on fintech platforms, from the catchy slogans on websites to the dense paragraphs in user agreements, using two powerful linguistic lenses: Critical Discourse Analysis (CDA) and Conceptual Metaphor Theory. To do this, a substantial collection of text, or corpus, was assembled from robo-advisors,*